

O'ZBEKISTONDA FUQAROLARNING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY  
MADANIYATNI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI

*Abduaxatova Shahnoza Dilmurod qizi*

*Andijon davlat Pedagogika instituti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar va sanat fakulteti*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va shaxsning siyosiy faolligini oshirish borasida turli xil tadbirlar bayoni, ko'zga ko'ringan kamchiliklar shuning bilan birga taklif va mulohazalar keltirilgan.

**Аннотация:** эта статья представляет собой изложение различных мероприятий по повышению правовой культуры и политической активности человека в нашем обществе сегодня, с заметными недостатками, а также предложения и соображения.

**Annotation:** this article presents a description of various activities in our society today in order to raise the legal culture and increase the political activity of the individual, with prominent shortcomings, therefore, suggestions and considerations.

**Kalit sozlar:** huquqiy madaniyat, huquqiy ong, aholi, sud, qonun ustuvorligi, mahalla, oila, konstitutsiya, fuqarolik jamiyati.

**Ключевые слова:** правовая культура, правосознание, население, суд, верховенство закона, соседство, семья, Конституция, гражданское общество.

**Keywords:** legal culture, legal consciousness, population, court, rule of law, Neighborhood, Family, Constitution, civil society.

**Kirish:** Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Bugungi globallashuv davrida insonlar huquqiy madaniyatga ehtiyoj sezmoqda. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zarur sharti qonunlarga so'zsiz itoat etishdir. Har bir fuqaro o'ziga berilgan huquqlardan to'laqonli foydalanishi va qonunda belgilangan majburiyatlarini bajarishi zarur. Shu bilan bir qatorda "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va

qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".<sup>1</sup>

Konstitutsiyamizning 15-moddasida belgilangan ushbu qoidaning hayotiy ifodasini yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro o'z turmush tarzi, ish faoliyatida ko'rishi mumkin. Oilaviy hayotda bo'ladimi, jamiyatdagi munosabatlardami, o'qish va ish faoliyatidami-barchasi konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunlar bilan tartibga solinadi. Bolalikdan har bir inson ongiga singdirilayotgan qoidalardagi "mumkin" yoki "mumkin emas" degan so'zlar ham shu qonunlardan kelib chiqadi. Aynan mana shu qoidalarni o'zlashtirish bilan shaxsda huquqiy madaniyat shakllanadi, qonunchilik haqida tushuncha paydo boladi.<sup>2</sup>

**Material va metodlar:**

Maqolada qiyosiy tahlil usuldan foydalangan holda inson va fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni huquqiy savodxonligini oshirishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

**Natija va mulohazalar:**

Vatanimizning rivojlanishi va islohatlarning muvaffaqiyati esa kop jihatdan xalqning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Shaxsning siyosiy faolligini, uning chinakam fuqaroviylik munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadga tezroq erishishning muhim omili sanaladi.

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyatning poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyat darajasi jamoat birlashmalari, jamg'armalar, ittifoqlar, uyushmalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining keng tarmog'i mavjudligi hamda demokratik tuzilmalarning muayyan shaxs va jamiyatning huquqlarini ta'minlashdagi ijtimoiy faoligi bilan belgilanadi.<sup>3</sup> So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va

<sup>1</sup> Ozbekiston Respublikasi konstitutsiyasi: Toshkent 2019

<sup>2</sup> [https://constitution.uz/oz/pages/huquqiy\\_madaniyat/](https://constitution.uz/oz/pages/huquqiy_madaniyat/)

<sup>3</sup> Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 1997-yil 9-son 227-modda

tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmagan. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarning ham ishtiroki yetarlicha taminlanmagan.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy, salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.<sup>4</sup>

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatlaridan deyarli foydalanmasligi, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishi sabab bo'lmoqda. Fuqarolar orasida to'laqonli bo'lmasada huquqiy madaniyatning shakllanib borayotgani quvonarli, ammo ba'zi jihatlarda o'z haq-huquqlarimizdan yetarli darajada foydalana olmayotganimiz, hali hanuz huquqiy bilim darajamiz pastligi esa achinarli bo'lib qolmoqda.

Mana shunday holatlarni tezroq va samarali bartaraf qilish maqsadida jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishning bir qancha asosiy vazifalari belgilandi. Shular orasidan "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Yana bir muhim jihati shundan iboratki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish" shaxs-oila-mahalla-talim muassasasi-tashkilot-jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etildi.

Oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang'ich qoidalarini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda kundalik turmushda ko'p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun va hujjatlarning mohiyatini uyma-uy yurib targ'ib qilish ham huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida o'z samarasini bermoqda.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda bugungi kun uchun dolzarb muammolardan biriga aylanib bolgan, yani aholi orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir chora-tadbirlarning amalda qo'llanilishi fuqarolik jamiyati qurishning asosiy poydevoriga aylanadi; shu bilan birga O'zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida oqilona va adolatli ishlar olib borilayotganini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent- 2019
2. [https://constitution.uz/oz/pages/huquqiy\\_madaniyat/](https://constitution.uz/oz/pages/huquqiy_madaniyat/)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 1997-yil 9-son 227-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618son qarori